



UDK: 930.25:676.2:7.025

Dildora YUSUPOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Antropologiya instituti ilmiy kotibi PhD J.Adilov taqrizi asosida

PERGAMENT MATERIALLARINI SAQLASH SHART-SHAROITLARI VA QOIDALARI

Аннотация

Mazkur maqolada pergament hujjatlarning arxivlardagi o'rni va saqlashdagi o'ziga jihatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Pergament materialining kelib chiqishi, fizik-kimyoviy xususiyatlari, yemirilish sabablari va ularni arxivlarda saqlash sharoitlari haqida ma'lumot berildi. Shuningdek, restavratsiya usullari, zamonaviy texnologiyalar, raqamlashtirish jarayonlari hamda xalqaro tajribalar o'rganildi. Maqola davomida pergament hujjatlarni saqlash va restavratsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pergament hujjatlar nafaqat yozma manba, balki moddiy madaniy meros sifatida ham kelajak avlodlarga yetkazilishi uchun maxsus e'tibor talab qiladi.

Kalit so'zlar: Pergament, tarixiy hujjat, arxiv, qo'lyozma, saqlash sharoitlari, restavratsiya, konservatsiya, raqamlashtirish, madaniy meros, palimpsest.

УСЛОВИЯ И ПРАВИЛА ХРАНЕНИЯ ПЕРГАМЕНТНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Аннотация

В данной статье научно проанализированы место и особенности хранения пергаментных документов в архивах. Рассмотрено происхождение пергамента, его физико-химические свойства, причины разрушения и условия хранения в архивных фондах. Особое внимание уделено методам реставрации, современным технологиям, процессам цифровизации и международному опыту. В статье также представлены предложения и рекомендации по улучшению практики сохранения и реставрации пергаментных документов. Результаты исследования показывают, что пергаментные документы представляют собой не только письменные источники, но и материальное культурное наследие, требующее особого внимания для передачи будущим поколениям.

Ключевые слова: Пергамент, исторический документ, архив, рукопись, условия хранения, реставрация, консервация, цифровизация, культурное наследие, палимпсест.

CONDITIONS AND RULES FOR THE STORAGE OF PARCHMENT MATERIALS

Annotation

This article provides a scientific analysis of the role and specific features of storing parchment documents in archives. The study examines the origin of parchment, its physical and chemical properties, causes of deterioration, and storage conditions in archival collections. Particular attention is given to restoration methods, modern technologies, digitization processes, and international experience. The article also presents proposals and recommendations for improving the practice of preserving and restoring parchment documents. The findings demonstrate that parchment documents represent not only written sources but also tangible cultural heritage that requires special care to be transmitted to future generations.

Keywords: parchment, historical document, archive, manuscript, storage conditions, restoration, conservation, digitization, cultural heritage, palimpsest.

Kirish. Insoniyat tarixining qadimiy bosqichlaridan boshlab yozma manbalar jamiyat taraqqiyotining muhim ko'zgusi bo'lib xizmat qilib kelgan. Malumotlarni qayd etishda pergamentlar muxim ahamiyat kasb etgan. Hujjatlar alohida o'rin tutadi. Pergament – hayvon terisidan muhim maxsus usulda tayyorlanadigan yozuv materiali bo'lib, miloddan avvalgi asrlardan boshlab keng qo'llanilgan va o'zining mustahkamligi, uzoq muddat saqlanish xususiyati bilan qadrlangan. Qadimgi davrda davlat boshqaruvi, diniy marosimlar, huquqiy munosabatlarga oid hujjatlar hamda kitoblar aynan pergamentda yozilgan. Shu sababli ushbu ma'lumotni saqlash vositalarida saqlangan tarixiy ma'lumotlar muxim manbaviy ahamiyatga ega. Arxivshunoslik va hujjatshunoslikda pergament hujjatlar tabiiy kelib chiqishi, ya'ni hayvon terisidan tayyorlanganligi sababli, ular saqlanishi qog'oz hujjatlaridan farq qiladi. Namlik, harorat, yorug'lik, mikroorganizmlar va kimyoviy omillarning ta'siri pergamentni tez shikastlanishiga olib kelishi mumkin[1]. Shu sababli zamonaviy arxivlarda pergament hujjatlarni saqlash masalasi alohida e'tibor talab etadi. Mazkur mavzuni ilmiy tadqiq etish orqali, pergament hujjatlarning arxiv fondlarida tutgan o'rni, ularni saqlashning an'anaviy va zamonaviy

usullari, shuningdek, O'zbekiston va jahon tajribasidagi yondashuvlarni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi[2]. Ushbu fikrlardan kelib chiqqan xolda takidlash mumkinki, tadqiqot mavzusi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Pergament hujjatlar masalasi bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar asosan tarixiy manbashunoslik, arxivshunoslik nazariyasi hamda hujjatlarni saqlash texnologiyalari doirasida olib borilgan.

Tadqiqotchilar P.G.Bulgakov, R.A.Ambartsumyan va boshqalar o'z asarlarida pergament hujjatlarni tarixiy manbashunoslik nuqtai nazardan ochib bergan. A.Johnson, C.Roberts va D.Etherington kabi xorijlik olimlar pergament hujjatlarni tiklash, saqlash va saqlashning o'ziga xos usullar haqida o'z asarlarida yoritib berishgan. Yurtimiz olimlaridan B.Boboqulov, I.Alimov va boshqalar arxivshunoslik nazariyasi doirasida pergament hujjatlarning o'rni va tizimlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan.

Tadqiqotning metodologik asosi. Ushbu tadqiqot pergament hujjatlarning arxiv va kutubxonalarda tutgan o'rni va ularni saqlash xususiyatlarini ilmiy tahlil qilishga qaratilgan

bo'lib, uning metodologik asosini tarixiylik, tizimlilik va qiyosiy-tahliliy yondashuvlar tashkil etadi. Pergament hujjatlarni o'rganishdan oldin, ushbu ma'lumotlarni saqlash vositasining o'ziga xos kelib chiqish tarixiga ega. "Pergament" so'zi qadimgi Bergama shahri nomidan kelib chiqqan bo'lib, kichik osiyoning hayvon terisini (odatda buzoq, qo'y yoki echki, kiyik) maxsus ishlov berish orqali tayyorlangan yozuv materiali hisoblanadi. Antik davrlardan boshlab, pergament papirusdan ko'ra uzoq saqlangan. Shu bois u ilmiy va diniy matnlarni yozishda eng qulay vosita sifatida qaralgan. Pergament yozuv uchun yaxshi ashyo bo'lib, antik davrdan tarixiy ma'lu motlarni yozib qoldirish uchun keng qo'llanilib kelgan. Uning ijobiy jihatlari, pergamentning ikki tomoniga ham yozish zarur bo'lganda yozuvlar o'chirilib, undan qayta foydalanish mumkin bo'lgan[3]. Pergament faqat yozuv materiali sifatida emas, balki qo'lyozmalar muqovasini tayyorlashda ham ishlatilgan. Bunday hollarda unga dag'alroq ishlov berilgan. Manbalardan ma'lumki, pergament asosan echki, qo'y va buzoq terisidan tayyorlangan. Eng sifatli pergament esa buzoq yoki ichki, qo'y terisidan ishlangan Sharq mamlakatlarida yozuv materiallari uchun terini qayta ishlash qadim. zamonlardan ma'lum bo'lgan[4]. Bu haqda Gerodot (mil. avv. V asr) ham yozib qoldirgan. Pergament tayyorlash jarayoni murakkab bo'lib, Terining ohakli suvda qayta ishlaniishi, yuvilishi va silliqilanishi uning sifatini yanada oshirgan. Natijada tayyor pergamentning tashqi tomoni to'qroq rangga bo'lgan. Pergament Xomashyosi qimmat bo'lib tayyorlash jarayoni uzoq davom etgani sababli uning narxi xam qimmat bo'lgan. Shu bilan birga, uning mustahkamligi, egiluvchanligi va uzoq muddat saqlanish xususiyati pergamentni qadimiy yozuv vositasi sifatidagi ahamiyati sekin uning ommalashishiga olib keldi[5]. Pergamentning yana bir muhim jihati shundaki, u kitobat ishlarida yangi uslubining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Oldingi davrlarda ma'lumotni saqlash vositalari asosan o'ram shaklida bo'lsa, pergament asosidagi kitoblar varaq shaklida tikilib, kitob ko'rinishida saqlana boshlandi. Bu esa diniy amaliyotda va kundalik foydalanishda ancha qulaylik yaratdi, chunki kitobdan foydalanish o'ramdan ko'ra osonroq bo'lgan. Arxivshunoslik amaliyotida "pergament" va "vellum" tushunchalari ko'pincha notug'ri qo'llaniladi. Bu haqida tadqiqotlarda ta'kidlanishiga[6] ba'zi olimlar "pergament" va "vellum" atamalarini bir-birining o'rnida qo'llaydilar, chunki "vellum"ni shunchaki pergamentning yuqori sifatli ko'rinishi deb hisoblaydilar. Boshqa manbalarda esa pergament qo'y terisidan tayyorlanadi, "vellum" esa aynan buzoq terisidan tayyorlanadigan material sifatida farqlanadi". Bu esa bir mahsulotning yuqori va quyi sifatleri ishlab chiqarilganidan dalolat beradi. Chunki buzoq terisidan tayyorlangan pergament boshqa terilarga nisbatan sifati va uzoq saqlanishi bilan ajralib turgan[7].

Pergamentning qimmatligi sababli o'rta asrlarda kotiblar undan nihoyatda ehtiyotkorlik bilan foydalanganlar. Qimmat xomashyoni tejash maqsadida ba'zan eskirgan yoki foydalanilgan varaqlar qayta ishlanib, ularga yangi matn yozilishga ham foydalanilgan. Bunday qayta yozilgan qo'lyozmalar palimpsestlar deb atalgan. Palimpsestlarda ko'pincha avvalgi yozuv izlari to'liq yo'qolmaganligi sababli ularni zamonaviy texnologiyalar yordamida o'qish imkoniyati ham mavjud[8].

Matnni o'chirishda turli usullardan foydalanilgan bo'lib bu jarayon siyoh rangiga ham bog'liq bo'lgan. Masalan, qora siyoh osonroq o'chirilib, qayta yozish uchun imkon yaratgan. Ammo temir-gall siyohi (temir tuzlari va o'simlik tarkibidan tayyorlangan siyoh) chuqur singib ketganligi sababli uni to'liq o'rganish imkonsiz bo'lgan. Shu bois siyohli yozuvlari palimpsestlarda ko'pincha aniq iz qoldirgan[9]. Bu esa hozirgi kunda palimpsestlardan o'chirib yuborilgan ma'lumotlarni imkonini bermoqda.

Yurtimiz hududi ham qadimdan ilm-fan, madaniyat va din markazlaridan biri bo'lib, bu yerda pergament qo'lyozmalar yozilgan va hozirgi kunga qadar katta qismi saqlanib qolgan. O'zbekiston Milliy arxivi hamda O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi instituti. O'zbekiston Milliy kutubxonasi va boshqa muziylar saqlovxonalarining Nodir qo'lyozmalar fondlarida turli pergamentga yozilgan tarixiy hujjatlar o'rin olgan[10]. Ularni manbaviy ahamiyatiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Tarixiy hujjatlar

2. Qo'lyozma asarlar (Manbalar)

Birinchi guruh. Buxoro amirligi hujjatlari, Qushbigi arxiv hujjatlar, Xiva va Qo'qon xonligiga oid xujjatlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi guruhga. Sharqshunoslik qo'lyozmalar instituti, O'zbekiston milliy kutubxonasi, O'zRFA Sharqshunoslik instituti, O'zbekiston milliy kutubxonasining nodir qo'lyozmalar zali Shuningdek, pergament qo'lyozmalar nafaqat diniy yoki ilmiy ahamiyatga, balki badiiy qiymatga ham ega, chunki ular ko'pincha oltin suvi, bezakli harflar va miniaturalar bilan ishlangan. Bu esa Pergament hujjatlarning tarixiy ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat beradi. Chunki, ushbu manbalarda keltirilgan ma'lumotlar, o'sha davr tarixi, san'ati va turmush tarzini yoritib beruvchi manba sifatida namoyon bo'ladi.

Pergamentning arxivlarda uzoq muddat saqlanishi uchun maxsus sharoit talab etiladi. Tadqiqotchilarning qayd etishlaricha, mukammal saqlash sharoitlari pergament uchun 30°-20° C (32°-68° F) harorat oralig'i va 50-65% nisbiy namlikda bo'lishi lozim. Hech qachon pergamentni suvga to'liq singib ketishiga yo'l qo'yilmasligi kerak, shuningdek, uni haddan tashqari quritib yuborish ham mumkin emas". Shu sababdan arxivlarda pergament hujjatlari maxsus sharoitlarda saqlanadi. Pergament juda sezgir va gigroskopik material bo'lganligi sababli, vaqt o'tishi bilan fizik va kimyoviy o'zgarishlarga olib keladigan tashqi sharoitdagi har qanday o'zgarishlarga osonlikcha ta'sir qiladi.

Pergamentga zarar yetkazuvchi omillardan biri bu ortiqcha namlikdir. Bu borada shunday ta'kidlanadi: "Pergamentga suvning salbiy ta'siri kuchli bo'lib bakteriyalar ko'payishini osonlashtirib, ularni tezda yemirilish va hatto butunlay yo'q bo'lishiga olib kelishi mumkin". Shu sababli arxivlarda pergament hujjatlarni ortiqcha namlikdan himoyalovchi xonalarda saqlash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ularning tarixiy o'rni, huquqiy ahamiyati va madaniy merosimizdagi o'rni juda beqiyosdir. Shu bilan birga, ularni saqlash jarayonida maxsus sharoit, ilmiy asoslangan konservatsiya usullarini qo'llash talab etiladi[11]. Aks holda, namlik, mikroorganizmlar va fizik-mexanik omillar ta'sirida pergament hujjatlar qayta tiklab bo'lmaydigan darajada zararlanishi mumkin.

Gruziyaga pergament hunarmandlari teri yuzasini qayta ishlash uchun ohak, tuxum oqi va zig'ir moyidan foydalanganlar. Bu oxirgi va boshqa yog'lar pergament yuzasini sarg'ayishiga olib keladi[12]. Shuning uchun qo'lyozma matni va pergamentga zarar yetkazmaslik uchun restavratsiya va konservatsiya jarayonida bu masalalarni hal qilish kerak. To'plamlarimizda saqlanadigan buyumlarda pergamentning sarg'ayishi va qorayishi qayd etilgan. Tadqiqotchi M. Surguladze ta'kidlaganidek, tuxum oqidan foydalanish 12-13-asrlarga oid qo'lyozmalarga kiritilgan ikkita qo'shimcha bilan tasdiqlangan. So'nggi yillarda restavratsiya laboratoriyalarida pergament hujjatlarni saqlash va tiklashning zamonaviy usullari qo'llanmoqda. Masalan, yapon qog'oz yordamida yirtilgan joylarni tiklash, maxsus vakuum kameralarida namlikni me'yorda saqlash, kislotasiz konvert va papkalaridan foydalanish shular jumlasidandir[13]. Köln restavratsiya institutida olib borilgan tajribalar ham

pergamentning uzoq muddat saqlanishida bunday metodlarning samarali ekanini ko'rsatgan. Bu kabi zamonaviy restavratsiya usullari pergament hujjatlarni uzoq muddat saqlash va kelajak avlodga yetkazish imkonini beradi[14].

Pergament hujjatlari boshqa yozuv materiallariga qaraganda tashqi muhit ta'siriga sezgir bo'lganligi sababli ularni arxiv muziy va kutubxonalarda saqlash jarayoni alohida e'tibor talab qiladi[15]. Ushbu turdagi axbarot saqlash vositalarining talab darajasidagi shart-sharoitlarda saqlash ularning uzoq muddat saqlanishini kafolatlaydi sharoit yaratish hujjatlarning uzoq muddat saqlanishini kafolatlaydi. Arxiv muziy va kutubxonalarda saqlovxonada xodimlari muntazam ravishda pergament hujjatlarini vizual ko'rikdan o'tkazishlari, namlik va harorat o'zgarishini nazorat qilishlari shart. Har 1-2 yilda maxsus laboratoriya tekshiruvlari orqali pergamentning fizik-kimyoviy xolati qayta baholanadi. Bu esa pergament vositalarini holatini bilish, uni uzoq muddat saqlash imkonini beradi. Takidlash lozimki ba'zi mamlakatlarda pergament hujjatlari uchun maxsus mikroiklim yaratadigan oynani vitrinalar va yopiq kapsulalar qo'llaniladi. Bu usul hujjatlarni tashqi omillardan to'liq ajratib, ularning uzoq muddat saqlanishini ta'minlaydi. Arxiv hujjatlarni uzoq muddat davomida saqlanishi, ularda mavjud tarixiy ma'lumotlarni saqlash va umrini uzaytirish[16]. Pergament hujjatlarni saqlashda restavratsiya jarayoni ham muhim bosqich hisoblanadi.

Restavratsiyaning asosiy maqsadi hujjatni to'liq yangilash emas, balki mavjud holatda barqarorlashtirish va yemirilish bosqichini to'xtatishdan iborat. Bu jarayonlar tarixiy manbalarni kelajak avlodga yetkazishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda arxiv hujjatlarini restavratsiya qilishning bir qancha zamonaviy usullari qo'llanilmoqda. So'nggi yillarda pergament materiallarining restavratsiyasida bir qator yangi texnologiyalar joriy etilmoqda.

Xulosa va takliflar. Ushbu zamonaviy usullar tarixiy hujjatlar ba manabalarida saqlanayotgan ma'lumotlarni kelajak avlodga yetkazishga yordam beradi. Bugungi kunda pergament hujjatlar YUNESKO tomonidan ham jahon madaniy merosi sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki ular nafaqat matnli ma'lumot, balki moddiy madaniyat, texnologik taraqqiyot va san'at tarixining namunasi hisoblanadi. Shu sababdan jahon hamjamiyati pergament hujjatlarni saqlash va kelajak avlodga yetkazish uchun ko'plab madaniy tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda Pergament hujjatlar insoniyat tarixining eng qadimiy va qimmatli yozuv manbalaridan biri sifatida arxivlar, Muziy va kutubxonalarda alohida o'rin egallaydi. Ularning mustahkamligi, qayta ishlanishi va uzoq muddat saqlanishi tufayli rasmiy diniy, huquqiy va ilmiy matnlar asrlar davomida bizgacha yetib kelgan. Shu bilan birga, pergamentning gigroskopikligi, kimyoviy va biologik ta'sirlarga sezgirligi ularni saqlash va restavratsiya qilishda maxsus yondashuvlarni talab etadi.

ADABIYOTLAR

1. An Introduction to Greek and Latin Palaeography. – Oxford: Clarendon Press, 1975. – 423 p.
2. Материалы из истории промышленности и ремесел. – Т. V. – Тбилиси, 1986.
3. Bookbinding and the Conservation of Books: A Dictionary of Descriptive Terminology. – Washington: Library of Congress, 1982. – 214 p.
4. Сочинения. – М.: Наука, 1963. – Т. 2. – 345 с.
5. Bookbinding and the Conservation of Books: A Dictionary of Descriptive Terminology. – Washington: Library of Congress, 1982. – 213 p.
6. Bookbinding and the Conservation of Books: A Dictionary of Descriptive Terminology. – Washington: Library of Congress, 1982. – 216 p.
7. Древнегрузинские палеографические термины. – Тбилиси, 1978.
8. Реставрация и консервация фрагмента пергаментной рукописи XV века // Сохранение культурного наследия. Исследования и реставрация. – СПб.: Институт им. Репина, 2018. – С. 212–218.
9. Реставрация пергаментных рукописей. – Москва: Наука, 1975. – 72 с.
10. Conservation of Parchment Manuscripts. – Berlin: De Gruyter, 2005. – 210 p.
11. Digital Archiving of Historical Manuscripts. – New York: Routledge, 2014. – 58 p.
12. Preservation Techniques for Medieval Parchment. – London: British Library, 2011. – 82 p.
13. Некоторые проблемы реставрации пергаментных документов и их хранение // Сохранение культурного наследия. – СПб.: Институт им. Репина, 2018. – С. 110.
14. Реставрация и консервация фрагмента пергаментной рукописи XV века // Сохранение культурного наследия. Исследования и реставрация. – СПб.: Институт им. Репина, 2018. – С. 214.
15. Реставрация пергаментных рукописей. – Москва: Наука, 1975. – 75 с.
16. Реставрация и консервация фрагмента пергаментной рукописи XV века // Сохранение культурного наследия. Исследования и реставрация. – СПб.: Институт им. Репина, 2018. – С. 212–218